

**“Yosh tadqiqotchilar va talabalar ilmiy faoliyatida innovatsiya, integratsiya va zamonaviy ta’lim muammolari: nazariya va amaliyot” mavzusidagi Respublika ilmiy-amaliy anjuman materiallari to’plami. I son (2026-yil, 1-aprel)**

**INFLYATSIYA VA UNI BARTARAF ETISH YO‘LLARI**

**Tursinbayev Azizbek Nabijon o‘g‘li**

Namangan davlat universiteti Iqtisodiyot yo‘nalishi talabasi

Namangan, O‘zbekiston

<https://orcid.org/0009-0009-5300-9934>

email: [azizbektursinbayev005@gmail.com](mailto:azizbektursinbayev005@gmail.com)

**Ilmiy rahbar: Sirojiddinov K.I**

Dotsent, i.f.n. Namangan davlat universiteti

Namangan, O‘zbekiston

<https://orcid.org/0000-0002-7851-5990>

<https://doi.org/10.5281/zenodo.19421704>

***Annotatsiya:** Ushbu maqolada inflatsiya tushunasi va uning bartaraf etish yo‘llari hamda tadqiqotchi olimlar tomonidan olib borgan tadqiqotlar asosida nazariy fikrlar tahili va xulosalar berilgan.*

***Kalit so‘zlar:** inflatsiya, talab inflatsiya, taklif inflatsiya, giperinflatsiya, monetar siyosat, fiskal siyosat, “70-miqdor qoidasi”.*

***Annotation:** This article analyzes the concept of inflation, the ways to overcome it, and presents theoretical analyses and conclusions based on research conducted by scholars.*

***Keywords:** inflation, demand inflation, supply inflation, hyperinflation, monetary policy, fiscal policy, “rule of 70”.*

***Аннотация:** В данной статье рассматривается понятие инфляции, пути её преодоления, а также представлены теоретический анализ и выводы на основе исследований, проведённых учёными.*

***Ключевые слова:** инфляция, инфляция спроса, инфляция предложения, гиперинфляция, монетарная политика, фискальная политика, “правило 70”.*

**KIRISH**

Hozirgi zamon inflyatsiyasi nafaqat tovarlar va xizmatlarga bo‘lgan baholarni muntazam o‘sishi natijasida pulning sotib olish qobiliyatini pasayishi bilan bir qatorda ishlab chiqarish jarayonidagi nomutanosiblik, pul muomalasi, moliya hamda kredit sohasidagi salbiy omillar bilan tasniflanadi.

Inflyatsiyaning yuzaga chiqishining asosiy sabablari bo‘lib iqtisodiyot tarmoqlari, jamg‘arma va iste‘mol, talab va taklif, davlat daromadlari va xarajatlari, xo‘jaliklarning pul

**“Yosh tadqiqotchilar va talabalar ilmiy faoliyatida innovatsiya, integratsiya va zamonaviy ta’lim muammolari: nazariya va amaliyot” mavzusidagi Respublika ilmiy-amaliy anjuman materiallari to’plami. I son (2026-yil, 1-aprel)**

massasi va unga bo‘lgan talabi o‘rtasidagi mutanosiblik hamda markaziy bankning kredit ekspansiyasi hisoblanadi. Ushbu ta’kidlab o‘tgan omillar o‘z mohiyatiga asosan inflyatsiyaga, uning darajasiga turlicha ta’sir etishi mumkin.

Iqtisodiyotimizning jahon xo‘jalik va iqtisodiy-moliyaviy tizimiga integratsiyalashuv jarayoni tobora chuqurlashib borayotganini inobatga oladigan bo‘lsak, jahon moliyaviy inqirozi, avvalo uning oqibatlari bizga ham salbiy ta’sir ko‘rsatayotgani haqida gapirib o‘tirishning hech qanday zarurati bo‘lmasa kerak, deb o‘ylayman.

Avvalo, inflyasiyani jilovlamasdan turib, makroiqtisodiy barqarorlikka erishish mumkin emas.

Jahon tajribasini puxta o‘rganib, xalqaro ekspertlarni jalb etgan holda, monetar siyosatni takomillashtirish va narx-navo barqarorligini ta’minlash konsepsiyasini ishlab chiqishimiz zarur.

Inflyasiyani keltirib chiqaruvchi asosiy omillar investitsion faollikning oshishi natijasida iqtisodiyotda vujudga keladigan yuqori talab va tartibga solinadigan narxlarning liberallashtirilishi bo‘lishi kutilmoqda. Bunda davlat korxonalarining isloh qilinishi (sh.j. xususiylashtirishi) doirasida kapital qo‘yilmalar hajmining o‘sishi investitsion faollikni rag‘batlantiruvchi asosiy omil bo‘ladi.

Bunday ta’sir, avvalambor, umuman dunyo bozoridagi talab va narxlarning keskin tushib ketishida va tabiiyki, mamlakatimiz eksport qiladigan mahsulotlarning muhim turlariga nisbatan hamda eksportga yo‘naltirilgan etakchi tarmoqlar va ular bilan bog‘liq turdosh korxonalar faoliyatida namoyon bo‘lmoqda. Bu esa, o‘z navbatida, butun iqtisodiyotimizning mutanosib va samarali rivojlanishiga salbiy ta’sir ko‘rsatmoqda, ko‘zda tutilgan loyihalarni amalga oshirish, o‘z oldimizga qo‘ygan maqsadlarga erishish yo‘lida ko‘plab muammolarni tug‘dirmoqda.

Ushbu maqolani yoritib berishda quyidagi vaziflar belgilanib olingan, ular quyidagilardan iborat:

- Inflyatsiyaning kelib chiqish sabablarini o‘rganish chiqish;
- Inflyatsiyaning hisoblash usullarini o‘rganish;
- O‘zbekistonning inflyatsiya darajasini tahlil qilish;
- O‘zbekistonda inflyatsiyaning kamaytirishning chora-tadbirlarini o‘rganish.

#### **ADABIYOTLAR SHARHI**

P. Grauwe va M. Polanlar[1] tomonidan inflyatsiya darajasini uch qismga ajratgan holda – past, oqilona va yuqori darajalarga ajratgan holda, pullar taklifi va inflyatsiya sur‘atlari o‘rtasidagi bog‘liqlikni, korrelyatsion tahlil natijalariga tayanilgan holda, asoslab berilganligi inflyatsiya va milliy valyutaning nominal almashuv kursi o‘rtasidagi bog‘liqlik masalasiga oydinlik kiritadi.

**“Yosh tadqiqotchilar va talabalar ilmiy faoliyatida innovatsiya, integratsiya va zamonaviy ta’lim muammolari: nazariya va amaliyot” mavzusidagi Respublika ilmiy-amaliy anjuman materiallari to’plami. I son (2026-yil, 1-aprel)**

L. Katao va M. Terronza[2] 107 mamlakat bo’yicha 1960 yildan 2001 yilgacha bo’lgan davrda inflyatsiya va byudjet defitsiti o’rtasidagi bog’liqlik masalasini tadqiq qilganlar. Shuni alohida ta’kidlash joizki, rivojlangan sanoat mamlakatlarida va inflyatsiya darajasi juda past bo’lgan mamlakatlarda Davlat byudjeti defitsiti va inflyatsiya o’rtasidagi sezilarli bog’liqlik tadqiqot jarayonida kuzatilmagan. Bu esa, L. Katao va M.Terronzalarning fikriga ko’ra, quyidagi omillar bilan izohlanadi:

hukumatga nisbatan ishonchning yuqori ekanligi;  
markaziy banklar mustaqilligining institutsional jihatdan himoyalanganligi;  
moliya tizimining rivojlanganligi.

G.Xess va Ch.Morrislarning fikriga ko’ra, baholarning sezilarsiz darajadagi o’sishi ham iqtisodiy o’sishga salbiy ta’sir ko’rsatadi. Ularning fikriga ko’ra, baholarning unchalik sezilarli darajada bo’lmagan o’sishi ham inflyatsiya dinamikasidagi noaniqlikni kuchaytiradi. Bu esa, o’z navbatida, tijorat banklari kreditlari foiz stavkasining o’sishiga olib keladi. Chunki kreditlarning foiz stavkasi o’zida nafaqat kutilayotgan inflyatsiyani, balki risk uchun qo’shimcha ustamani ham aks ettiradi[3].

Professor M. Pivovarovaning fikriga ko’ra, inflyatsiyaning uncha yuqori bo’lmagan darajasi iqtisodiy o’sishni rag’batlantiradi, bunday sharoitda anti-inflyatsion siyosatni amalga oshirish ishsizlikning o’sishiga, iqtisodiyotning pasayishiga olib keladi deb ta’kidlaydi[4].

Bizning fikrimizcha inflatsiya ma’lum davrda bozorda mavjud tovar va xizmatlarning narxlarining o’sishi yoki iqtisodiyotda pul massasining mamlakatda mavjud tovar va xizmatlar hajmidan ortib ketishdir.

### **TADQIQOT METODOLOGIYASI**

Ushbu tadqiqot ishimizda inflatsiya tushunchasi nazariy jihatdan yoritib berilgan, bunda asosan iqtisodiy maktab vakillari hamda iqtisodchi olimlarning fikrlari o’rganilgan va tahlil qilingan. Shuningdek, inflatsiyani barataraf etishda mavjud monetar va fiskal siyosatdan foydalanishning o’rni muallif tomonidan nazariy jihatdan tadqiq qilingan.

### **TAHLIL VA NATIJALAR**

Inflyatsiya pul qadrsizlanishini bildiradi. Inflyatsiya har yili rivojlangan davlatlarda o’rtacha 7 % tashkil etadi. Barcha iqtisodiy aloqalar inflyatsiyani hisobga olgan holda amalga oshiriladi. Inflyatsiya (lot. inflatio — shishish, bo’rtish, ko’tarilish), pulning qadrsizlanishi — tovar-pul muvozanatining buzilishi natijasida muomalada xo’jalik aylanmasi ehtiyojlaridan ortiq darajada qog’oz pullar miqdorining ko’payib ketishi, pul massasining tovarlar massasidan ustunligi natijasida tovar bilan ta’minlanmagan pullarning paydo bo’lishi. I. birinchi galda sifati

**“Yosh tadqiqotchilar va talabalar ilmiy faoliyatida innovatsiya, integratsiya va zamonaviy ta’lim muammolari: nazariya va amaliyot” mavzusidagi Respublika ilmiy-amaliy anjuman materiallari to’plami. I son (2026-yil, 1-aprel)**

yaxshilanmagan holda tovarlar va xizmatlar narxining ko‘tarilishi ko‘rinishida, shuningdek, oltin va chet el valyutasining milliy valyutaga nisbatan qimmatlashishi shaklida yuz beradi. Tovar ishlab chiqarishning to‘lov qobiliyatiga ega talab o‘shidan ortda qolishi, bozorda talabga javob bermaydigan tovarlarning ko‘payib ketishi, byudjet kamomadlarini qoplash uchun qo‘shimcha pul emissiyasi, investitsiyalarni emissiya hisobidan moliyalashtirish, monopol narxning mavjudligi, narxni oshib ketishidan hadiksirab tovarlarni keragidan ortiq xarid etish, mamlakatga qadrsizlangan chet el valyutasining ko‘plab kirib kelishi va boshqa omillar inflyatsiyani yuzaga keltiradi. Inlatsiya jarayoni narxlarning o‘shishi, yalpi talabning yalpi taklifdan oshib ketishi, makroiqtisodiy beqarorlik natijasidir. “Inflyatsiya” termini dastlab 1861—1865-yillarda Shimoliy Amerikada, so‘ngra Fransiya va Germaniyada qo‘llangan. Tovarpul muvozanatiga ko‘ra, pul massasi (M) pul miqdori (t)ning pul oboroti tezligi (V)ra ko‘paytmasi bo‘lib, bu tovar massasi (T)ga, ya’ni bir tovar narxining (R) tovarlar miqdori (Q)ra ko‘paytmasiga teng bo‘lishi kerak. Bunda  $M=T$  yoki  $mV=PQ$  tengligi hosil bo‘ladi. Agar pul ko‘payib ketsa  $M>T$ , ya’ni pulning bir qismi ortiqcha bo‘ladi. Agar pul miqdori o‘zgarmaganda tovar miqdori qisqarib ketsa  $T<M$  paydo bo‘ladi[5]. Har ikki holda ham ortiqcha pul narxlarning o‘shishini keltirib chiqaradi, chunki narx tovar birligiga beriladigan pul miqdoridir. Inflyatsiya bu faqat pul bilan bog‘liq hodisa emas, balki iqtisodiyot yuksalganda qisqaradigan, tushkunlik paytida kuchayadigan iqtisodiy holatdir.

Xorijiy va milliy iqtisodiy nazariyaning qarashlariga asosan milliy iqtisodiyotning balansini buzilishi va uning oqibatida inflyatsiyaning yuzaga chiqishining quyidagi o‘rtta omillari mavjud:

- qog‘oz pullarning emissiya qilishda va tashqi savdoda davlatning mutloq monopoliyasi;
- hozirgi zamon davlat funktsiyalarini bajarish uchun davlat xarajatlarini ortishi;
- kasaba uyushmalari tomonidan byudjet muassasalari ishchi-xodimlarining ish haqlarini oshirish bo‘yicha faoliyati;
- iqtisodiyotda mahsulot ishlab chiqarish, ishlarni bajarish, xizmatlar ko‘rsatish sohasida ayrim xo‘jalik sub’ektlarining monopoliya (oligopoliya) holatining mavjudligi.

Xorijiy amaliyotda inflyatsiyaning yuzaga chiqishini usullariga asosan quyidagi turlarga ajraniladi: taklif inflyatsiyasi, talab inflyatsiyasi, xarajatlar inflyatsiyasi, kredit inflyatsiyasi, import bilan bog‘liq inflyatsiyasi, kutilayotgan inflyatsiyasi.

Taklif inflyatsiyasida ishlab chiqarish xarajatlarini oshishi natijasida mahsulotlar, bajarilgan ishlar va ko‘rsatiladigan xizmatlarga bo‘lgan narx- navoning o‘shishi yuzaga chiqadi. Ushbu inflyatsiya turida monopol holatdagi korxonalar tomonidan ishlab chiqarishda asosiy

**“Yosh tadqiqotchilar va talabalar ilmiy faoliyatida innovatsiya, integratsiya va zamonaviy ta’lim muammolari: nazariya va amaliyot” mavzusidagi Respublika ilmiy-amaliy anjuman materiallari to’plami. I son (2026-yil, 1-aprel)**

vositalarni modernizatsiya qilish bilan bir vaqtda ulardan to’liq foydalanmaslik natijasida xarajatlar ortadi. Buning natijasida barcha ishlab chiqarish xarajatlari nisbatan kam chiqarilgan mahsulotlarning narx-navosini o’sishi amalga oshiriladi.

Talab inflyatsiyasi bu inflyatsiyaning ushbu turi mamlakat aholisi va xo’jalik sub’ektlarning daromadlari haqiqiy ishlab chiqarilgan mahsulotlar, bajarilgan ishlar hamda ko’rsatilgan xizmatlar miqdoridan tez o’sadi. Odatda, talab inflyatsiya aholining to’liq ish bilan ta’minlangan holatda yuzaga chiqadi. Aholining daromadlarinig tez sur’atda o’sishi natijasida mahsulotlarga, bajarilgan ishlar va ko’rsatiladigan xizmatlari bo’lgan narx-navo oshadi. Bunday holatda talabnig har qanday o’sishi narx-navoning o’sishiga olib keladi.

Import bilan bog’liq inflyatsiya. Inflyatsiyaning ushbu turi aniq olingan mamlakatga tashqi omillar asosida yuzaga chiqadi. Ushbu holatda import qilinadigan mahsulotlarga bo’lgan narx-navoning ko’tarilishi natijasida ba’zi mahsulotlarga bo’lgan narx-navolar zanjir tarzida ko’tarilishi mumkin.

Kutilayotgan inflyatsiya. Inflyatsiyaning ushbu turida davlat tomonidan olib borilayotgan pul-kredit va byudjet siyosati natijasida joriy yil uchun inflyatsiyaning tahliliy darajasi belgilanadi va u daraja tartibga solib turiladi.

Hozirgi vaqtda inflyatsiya tabiatini o’rganishda iqtisodchi olimlar uning monetar sabablarini, ya’ni tovar masasiga nisbatan pul massasining xajmini o’zgarishini asosi qilib ko’rsatadilar. Inflyatsiya bilan olib boriladigan faoliyatda uning darajasini o’lash uchun dastak lozim bo’ladi. Ushbu dastak bo’lib baholar indeksi hisoblanadi. Baholar indeksi joriy umumiy iste’mol narxlarining bazis davridan narxlarga nisbatan o’sishi (pasayishi) bilan aniqlanadi. Ushbu indeksni aniqlashda mamlakat fuqorolarining iste’mol savatiga kiritilgan mahsulotlar va xizmatlarning chakana narxlaridan foydalanadilar. Ushbu formula quyidagicha hisoblanadi:

$$IPT_s = \frac{PK_t}{PK_b} \times 100\%;$$

Bu yerda: IPTs – iste’mol narxlarining indeksi;

PKt - iste’mol savatining joriy narxi;

Pkb - iste’mol savatining bazis narxi.

Inflyatsiyaning atamasi muomaladagi qog’oz pul massasining tovarlarning real taklifiga nisbatan haddan ziyod ko’payib ketishi holatini izohlangan. . Ammo inflyatsiyaning bunday tavsifi mukammal emas va uning sabablarini ochib bermaydi. Umuman olganda inflyatsiya pul muomalasi qonunlarining buzilishi shakli sifatida makroiqtisodiy muvozanatning buzilishini, talab va taklif nomutanosibligini anglatadi.

**“Yosh tadqiqotchilar va talabalar ilmiy faoliyatida innovatsiya, integratsiya va zamonaviy ta’lim muammolari: nazariya va amaliyot” mavzusidagi Respublika ilmiy-amaliy anjuman materiallari to’plami. I son (2026-yil, 1-aprel)**

Keynschlar maktabi namoyondalari bunday nomutanosiblikning sababi to’liq bandlik sharoitida talabning haddan ziyod bo’lishida deb bilishadi. Shu sababli ular ishlab chiqarish quvvatlaridan foydalanish darajasi past bo’lsa byudjet taqchilligi va qo’shimcha pul chiqarish yo’li bilan xarid qobiliyatini, boshqacha aytganda yalpi talabni ko’paytirish inflyatsiyaga olib kelmaydi deb hisoblashishadi[6].

Neoklassik yondoshuv tarafdorlari inflyatsiyaning manbai ishlab chiqarishning haddan ziyod o’sishida, ishlab chiqarish xarajatlarining ko’payishida deb bilishadi. Demak keynschilar inflyatsiyaga talab tomonidan, neoklassiklar esa taklif tomonidan yondoshishadi.

Agar iqtisodiyotda tovarlar va xizmatlar massasi yalpi talabga nisbatan sekinroq o’ssa, yoki yalpi talab ko’paygani holda o’zgarmasdan tursa, bu nomutanosiblik narxlar darajasining ko’tarilishi orqali bartaraf etiladi. Oqibatda pul birligining xarid qobiliyati pasayadi va milliy iqtisodiyotning qo’shimcha pul massasiga ehtiyoji paydo bo’ladi.

Inflyatsiya nafaqat pul muomalasining izdan chiqishi, balki butun takror ishlab chiqarish mexanizmining kasali, makroiqtisodiy buzilishlar natijasidir. Narxlarning o’sishi, pul birligi xarid qobiliyatining pasayishidan tashqari inflyatsiya namoyon bo’lishining quyidagi uch belgisi ham bor.

Inflyatsiyani miqdoran o’lchash uchun makroiqtisodiyotda «70-miqdor qoidasi» deb atalgan usuldan ham foydalaniladi. Bu usul narxlarning barqaror o’sishi sharoitida inflyatsiya darajasi necha yilda ikki baravarga oshishini aniqlash imkonini beradi. Buning uchun 70 ni yillik inflyatsiya darajasiga bo’lish kifoya:

Real YaIM va jamg’armaning necha yildan so’ng ikki marta oshishini hisoblash zarur bo’lgan hollarda ham «70-miqdor qoidasidan» foydalaniladi[7].

$$ikki\ baravar\ ko'payish\ vaqti = \frac{70}{o'sish\ sur'ati};$$

Iqtisod pasayish holatida bo’lganda mamlakatda jami talab ohsa, ishlab chiqarish hajmi ko’payadi, ishsizlik kamayadi, narx darajasi esa deyarli o’zgarmaydi yoki kam miqdorda o’zgaradi. Narx o’zgarmasligining sababi shundaki katta hajmdagi bo’sh turgan mehnat va xom ashyo resurlarini shu o’zgarmas narxda ishga tushirish mumkin bo’ladi. Chunki, ishsiz yurgan kishi ish haqini oshirishni talab qilmaydi, uning uchun ishga yollanishning o’zi kifoya hamda qo’shimcha stanok sotib olishga hojat yo’q.

Bundan tashqari, narx ishchi kuchini to’la ish bilan bandligiga erishishdan oldin ham oshishi mumkin. Ya’ni, ba’zi sanoat korxonalarida bo’sh turgan resurs va zahiralarni ishlab

**“Yosh tadqiqotchilar va talabalar ilmiy faoliyatida innovatsiya, integratsiya va zamonaviy ta’lim muammolari: nazariya va amaliyot” mavzusidagi Respublika ilmiy-amaliy anjuman materiallari to’plami. I son (2026-yil, 1-aprel)**

chiqarishga ertaroq to’liq jalb qilinadi, natijada ular talabning o’sishiga mos ishlab chiqarishga, taklifga erisha olmaydi. Talab, taklifdan ko‘payib ketadi, natijada narx yana osha boshlaydi.

Inflatsiya darajasini pasaytirish va muvozanatda saqlash uchun asosan hukumat monetar va fiskal siyosat yuritishi bilan amalga oshiriladi. Inflatsiya asosan iqtisodiy sikllarda cho‘qqiga chiqish bilan birgalikda o‘rib boradi. Ushbu jarayonda asosiy institut Markaziy Bank tomonidan olib boriladigan monetar siyosat, hukumatning fiskal siyosat yurgizishga undaydi. Iqtisodiyot cho‘qqiga erishishi bilan Markaziy Bank tomonidan iqtisodiyotdagi mavjud pul massasini asta-sekinlik bilan qisqartirishga harakat qiladi. Hamda institutlar asta-sekinlik bilan qisqartiruvchi fiskal siyosatni qo‘llaydi va davlat xaridlarini kamaytirishni boshlaydi.

### **XULOSA**

Agar iqtisodiyotda tovarlar va xizmatlar massasi yalpi talabga nisbatan sekinroq o‘ssa, yoki yalpi talab ko‘paygani holda o‘zgarmasdan tursa, bu nomutanosiblik narxlar darajasining ko‘tarilishi orqali bartaraf etiladi. Oqibatda pul birligining xarid qobiliyati pasayadi va milliy iqtisodiyotning qo‘shimcha pul massasiga ehtiyoji paydo bo‘ladi.

Inflyatsiya nafaqat pul muomalasining izdan chiqishi, balki butun takror ishlab chiqarish mexanizmining kasali, makroiqtisodiy buzilishlar natijasidir.

Iqtisodiyotda inflatsiya ko‘rsatkichining o‘shishi pasaytirish va muvozanatda holatida bo‘lishini ta’minlash uchun qisqartiruvchi monetar va fiskal siyosatni birgalikda amalga oshirish darkor. Shuningdek, inflatsiya darajasi ko‘tarilishi davrida davlat xarajatlarini ham kamaytirish inflatsiyani jilovlash uchun xizmat qiladi.

### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

1. P. Grauwe & M. Polan. Is inflation always and everywhere a monetary phenomenon?. Scandinavian Journal of Economics, 107(2) , 239-259.
2. L. Katao&M.Terronza. Fiscal deficits and Inflation. International Monetary Fund, april 1, 2003.
3. G. Hess& C. Morris. The long-run costs of Moderate Inflation. Federal Reserve Bank of Kansas city.
4. Malova, T., Pivovarova, M. (2019). Makroiqtisodiy boshqaruvning dilemmalari: Global moliyaviy barqarorlikka ta'siri. In: Popkova, E. (tahr.) Global moliyaviy tizimning kelajagi: qulash yoki uyg‘unlik. ISC 2018. Tarmoqlar va tizimlar bo‘yicha ma'ruza matnlari, 57-jild.
5. I. Fisher. The purchasing power of money, its determination and relation to credit, interest and crises. The online library of Liberty. 1911.
6. M. Keynes. The general theory of Employment, Interest, and Money. 13 December 1935.

**“Yosh tadqiqotchilar va talabalar ilmiy faoliyatida innovatsiya, integratsiya va zamonaviy ta’lim muammolari: nazariya va amaliyot” mavzusidagi Respublika ilmiy-amaliy anjuman materiallari to‘plami. I son (2026-yil, 1-aprel)**

7. Investopedia. What is the rule of 70?. Definition, example, and calculation.  
<https://www.investopedia.com>.